

O‘zbek tili qoida va me‘yorlari asosida shakllantirilgan hamda rasmiy muomalaga kiritiladigan yangi so‘z va atamalar
RO‘YXATI

T/r	Chet tillarga oid so‘z va atamalar	Ularning ma’nosi	Rasmiy muomalaga kiritilayotgan shakli	Qonunchilik hujjatlarida, rasmiy ish yuritishda qo‘llanishi
1.	Аккомпанемент	Fransuz tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “jo‘r bo‘lmoq”, “ashula yoki musiqaga jo‘r bo‘lish” degan ma’nolarni bildiradi.	Jo‘rnavoz	“Akkompanement” va “jo‘rnavoz” atamalari musiqa, madaniyat sohalarida, rasmiy ish yuritishda hamda jonli muloqotda birgalikda qo‘llanib kelmoqda. “Jo‘rnavoz” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida “akkompanement” ma’nosini ifodalaydi hamda atamaning yagona shaklda qo‘llanishiga olib keladi.
2.	Антракт	Fransuz tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “ora”, “oraliq”, “o‘rtasida”, “ish”, “harakat” so‘zlari bilan birikib, “oraliq, tanaffusdagi ish-harakat” degan ma’noni bildiradi. Hozirda spektakl pardalari yoki konsert bo‘limlari orasidagi tanaffus nomi hisoblanadi.	Tanaffus	“Antrakt” atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. “Tanaffus” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida yuqoridagi tushunchani ifodalay oladi. Qonunchilikda <i>“Spektaklda tanaffuslar (antraktlar) mavjudligi”</i> shaklida qo‘llangan.
3.	Арьерсцена	Fransuz va yunon tillaridan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “ort”, “orqa” hamda “sahna”, “maydon” so‘zlari bilan birikib, “sahnaorti” degan ma’noni bildiradi.	Sahnaorti	“Aryersena” atamasi teatrshunoslik, madaniyat sohalarida, rasmiy ish yuritishda hamda jonli muloqotda qo‘llanib kelmoqda. Ushbu atama qonunchilik hujjatlarida mavjud emas. “Sahnaorti” atama sifatida o‘zbek tilida yangi yasaliib, muqobil asosida tushunchani ifodalay oladi.
4.	АСКУЭ (Автоматизированная система контроля)	Rus tili orqali o‘zlashgan so‘z birikmasi bo‘lib, “Energiya hisobi va nazoratining avtomatlashtirilgan tizimi” ma’nosini	EHNAT (Energiya hisobi va nazoratining	ASKUE qisqartma so‘zi qonunchilik hujjatlarida, energetika sohasi rasmiy ish

	и учета электроэнергии)	bildiradi.	avtomatlashtirilgan tizimi)	yuritishida qo‘llanib kelmoqda. Qonunchilik hujjatlarida “<i>elektr energiyasi hisobining avtomatlashtirilgan nazorat tizimi (ASKUE)</i>”, “<i>Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (ASKUE)</i>”, “<i>ASKUE tizimini billing tizimi bilan integratsiya qilish</i>” kabi turli shakllarda qo‘llangan. EHNAT (Energiya hisobi va nazoratining avtomatlashtirilgan tizimi) qisqartma so‘zi o‘zbekcha muqobil sifatida yuqoridagi tushunchani ifodalay oladi.
5.	Банкет	Fransuz tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “tantanali ziyofat”, “maxsus uyushtiriladigan ziyofat” degan ma’noni bildiradi. Uning qurilish sohasida qo‘llanadigan “banket(lar)” (qumli yoki shag‘alli ko‘tarma) atamasiga aloqasi yo‘q.	Ziyofat	“Banket” atamasi tegishli sohalar, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. “Ziyofat” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida yuqoridagi tushunchani ifodalay oladi.
6.	Башмак	Rus tiliga turkiy tildan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “boshmoq”, ya’ni oyoq kiyimi ma’nosini bildiradi. Temir yoki boshqa materialdan yasalgan maxsus moslama, qurilma nomi.	Boshmoq	“Bashmak” va “boshmoq” atamalari transport, qurilish va boshqa sohalar, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. “Boshmoq” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida yuqoridagi tushunchani ifodalay oladi.
7.	БГС (Барабанные грануляторы – сушилки)	Rus tili orqali o‘zlashgan so‘z birikmasi bo‘lib, “Donalab quritish uskunasi” ma’nosini bildiradi. Kimyo sanoatida xomashyoni quritish	DQU (Donalab quritish uskunasi)	BGS atamasi tegishli sohalar, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. DQU (Donalab quritish uskunasi) qisqartma

		uchun mo'ljallangan uskuna.		so'zi o'zbekcha muqobil sifatida yuqoridagi tushunchani ifodalay oladi.
8.	БПЛА (Беспилотный летательный аппарат)	Rus tili orqali o'zlashgan so'z birikmasi bo'lib, "uchuvchisiz uchish apparati qurilmasi" ma'nosini bildiradi.	UHA (Uchuvchisiz havo apparati)	BPLA atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda hamda ijtimoiy tarmoqlarda ishlatib kelinmoqda UHA (Uchuvchisiz havo apparati) qisqartma so'zi atama sifatida o'zbek tilida yangi yasaliib, muqobillik asosida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma'nosiga muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llanishini ta'minlaydi. Qonunchilik hujjatlarida "uchuvchisiz uchish qurilmasi", "uchuvchisiz uchish apparati", "uchuvchisiz uchadigan apparat" kabi turlicha qo'llanib kelmoqda.
9.	Брекеты	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "qavs" degan ma'noni bildiradi.	Tishsim	"Breket" atamasi tibbiyot sohasi, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, e'lon va reklamalarda ishlatib kelinmoqda. Ushbu so'z qonunchilik hujjatlarida mavjud emas. "Tishsim" atama sifatida o'zbek tilida yangi yasaliib, muqobillik asosida yuqoridagi tushunchani ifodalay oladi.
10.	Бренд	Eski skandinavcha "brandre" so'zidan olingan bo'lib, "olov bilan kuydirish", "olov bilan tamg'alash" degan ma'nolarni bildirgan. Ingliz tiliga o'zlashib, "tamg'a", "belgi" ma'nosida qo'llangan. Hozirda tovar yoki xizmatlarning xosnomini boshqalardan ajratib turuvchi	Xosnom	"Brend" atamasi tegishli sohalar, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e'lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanmoqda. "Xosnom" atama sifatida o'zbek tilida yangi yasaliib, muqobillik asosida tushunchani ifodalay oladi.

		atama sifatida ishlatilib kelinmoqda.		
11.	Вебинар	Ingliz tilida “tarmoqda o‘tkaziladigan seminar, “yig‘in” ma’nosini bildiradi.	Vebyig‘in	“Vebinar” atamasi tegishli sohalar, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. “Vebyig‘in” atama sifatida o‘zbek tilida yangi yasaliib, muqobillik asosida tushunchani ifodalay oladi.
12.	Датчик	Rus tili orqali o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “kichik uzatish, qabul qilish qurilmasi” ma’nosini bildiradi. Tashqi ta’sir (harorat, bosim, harakat) ma’lumotlarini foydalanish mumkin bo‘lgan shaklga aylantirish orqali o‘lchov natijasini qabul qilishga, uzatishga mo‘ljallangan qurilma.	Sezgich	“Datchik” atamasi texnika va boshqa turli sohalarida, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. “Sezgich” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlaydi. Qonunchilik hujjatlarida “<i>AYOQShda namuna olgich va suv sezgich pastasining mavjudligi</i>”, “<i>kuchlanishni monitoring qilish uchun avtonom sezgichlar</i>” tarzida qo‘llash tajribasi bor. “Sezgich” atamasi hozirda ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda qo‘llanmoqda.
13.	Дедлайн	Ingliz tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “yakun chizig‘i”, “tugash chizig‘i”, “so‘nggi chiziq”, “o‘lim chizig‘i” kabi ma’nolarni bildiradi. Hozirda “oxirgi muddat”, “so‘nggi muddat” ma’nolarida ishlatilib kelinmoqda.	So‘ngmuddat	“Dedlayn” atamasi tegishli sohalar, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar hamda e’lonlarda qo‘llanmoqda. “So‘ngmuddat” atama sifatida o‘zbek tilida yangi yasaliib, muqobillik asosida tushunchani ifodalay oladi.

14.	Декорация	Fransuz tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “bezatish” ma’nosini bildiradi. Hozirda “maydon va sahnani bezatish”, “voqea-hodisa o‘rni va sharoitini aks ettiradigan sun’iy yoki tabiiy xomashyolardan manzara hosil qilish”, “badiiy jihozlash” kabi ma’nolarda qo‘llanmoqda.	Sahnabezak	“Dekoratsiya” atamasi teatrshunoslik, madaniyat va boshqa turli sohalarda, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. “Sahnabezak” atama sifatida o‘zbek tilida yangi yasaliib, muqobillik asosida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlaydi. Qonunchilik hujjatlarida “<i>sahna bezagi san’ati</i>”, “<i>sahna bezaklari</i>” kabi turlicha qo‘llanib kelmoqda.
15.	ДПО (Дробильно-помольное отделение)	Rus tili orqali o‘zlashgan so‘z birikmasi bo‘lib, “Maydalash-yanchish bo‘linmasi” ma’nosini bildiradi. Sanoat tarmoqlari, qurilishda materiallarni maydalash va yanchishda qo‘llanadi.	MYB (Maydalash-yanchish bo‘linmasi)	MYB (Maydalash-yanchish bo‘linmasi) qisqartma so‘zi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi. Ushbu atama qonunchilik hujjatlarida mavjud emas.
16.	ЕЭС (Единая электрическая система)	Rus tili orqali o‘zlashgan so‘z birikmasi bo‘lib, “Yagona elektr tizimi” ma’nosini bildiradi.	YET (Yagona elektr tizimi)	YET (Yagona elektr tizimi) qisqartma so‘zi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi. Ushbu atama qonunchilik hujjatlarida “ <i>Yagona elektr energetika tizimi</i> ” shaklida mavjud.
17.	Инвентаризация	Lotincha “inventarium” so‘zidan olingan bo‘lib, “mol-mulk ro‘yxati, xatlovi” ma’nosini bildirgan.	Xatlov	“Inventarizatsiya” va “xatlov” atamalari tegishli sohalarda, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida barobar qo‘llanmoqda. “Xatlov” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi hamda

				qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma'nosiga muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llanishini ta'minlaydi.
18.	Интерактив	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "o'zaro, birgalikda harakat qilish" ma'nosini bildiradi.	Interfaol	"Interaktiv" va "interfaol" atamasi tegishli sohalar, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e'lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida barobar qo'llanmoqda. "Interfaol" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma'nosiga muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llanishini ta'minlaydi.
19.	КВФ (Карусельный вакуумный фильтр)	Rus tili orqali o'zlashgan so'z birikmasi bo'lib, "Aylanma vakuum filtri" ma'nosini bildiradi. Texnologik yarimtayyor mahsulotni filtrlab beruvchi aylanma vakuum uskunasi.	AVF (Aylanma vakuum filtri)	AVF (Aylanma vakuum filtri) qisqartma so'zi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi. Ushbu atama qonunchilik hujjatlarida mavjud emas.
20.	Комментарий	Lotincha "commentarius" so'zidan olingan bo'lib, "tushuntirish", "eslatma", "sharh", "izoh" ma'nosini bildirgan.	Izoh	"Kommentariy" atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda, ijtimoiy tarmoqlar, e'lon va reklamalarda qo'llanmoqda. "Izoh" atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi.
21.	Миксер	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, "aralashtirish", "birlashtirish" ma'nosini bildiradi. Narsani aralashtirib beruvchi qurilma nomi.	Qorg'ich	"Mikser" va "qorg'ich" atamaları tegishli sohalar, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, ijtimoiy tarmoqlar, e'lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida barobar qo'llanmoqda. Qonunchilik hujjatlarida <i>"qorg'ich"</i>, <i>"qorgich"</i>, <i>"mikser (aralashtirgich)"</i> kabi turlicha qo'llanib kelmoqda.

				“Qorg‘ich” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlaydi.
22.	ЛВФ (Ленточный вакуумный фильтр)	Rus tili orqali o‘zlashgan so‘z birikmasi bo‘lib, “Tasmali vakuum filtri” ma’nosini bildiradi. Texnologik yarimtayyor mahsulotni filtrlovchi tasmali vakuum uskunasini.	TVF (Tasmali vakuum filtri)	TVF (Tasmali vakuum filtri) qisqartma so‘zi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi. Ushbu so‘z qonunchilik hujjatlarida mavjud emas.
23.	Палатка	Rus tili orqali o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “matodan tayyorlangan vaqtinchalik boshpana” ma’nosini bildiradi. Lotincha “palatium” (“saroy”) so‘zidan o‘zlashganligi haqida fikrlar ham mavjud.	Chodir	“Palatka” va “chodir” atamalari tegishli sohalar, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida barobar qo‘llanmoqda. Qonunchilik hujjatlarida <i>“chodir (palatka)”</i>, <i>“palatkali oromgohlar”</i> kabi turlicha qo‘llanib kelmoqda. “Chodir” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlaydi.
24.	Негатив	Lotincha “negativus” so‘zidan olingan bo‘lib, “manfiy”, “salbiy” ma’nosini bildirgan (Suratga olishning hosila manbasi – negativ atamasi bundan mustasno).	Salbiy	“Negativ” atamasi tegishli sohalar, jonli muloqotda, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. “Salbiy” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi.
25.	Пенопласт	Rus tili orqali o‘zlashgan so‘z bo‘lib,	Po‘kak	“Penoplast” va “po‘kak” atamalari

		“qotgan ko‘pik yoki po‘kak (pena) asosli polimer modda (plast)” ma’nosini bildiradi. Lotincha “plastos” (“shakllangan”) so‘zidan o‘zlashganligi haqida fikrlar ham mavjud.		tegishli sohalar, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e‘lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida barobar qo‘llanmoqda. “ Po‘kak ” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlaydi.
26.	Пеноблок	Rus tili orqali o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “qotgan ko‘pik yoki po‘kak (pena) asosli qirrali bo‘lak (block)” ma’nosini bildiradi. Roman-german tillaridagi “block (bloc)” (“bo‘lak”, “to‘siq”) so‘zidan o‘zlashganligi haqida fikrlar ham mavjud.	Po‘kak g‘isht	“ Penoblok ” atamasi qurilish sohalar, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e‘lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. “ Po‘kak g‘isht ” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlaydi.
27.	Полигон ТБО (Твердые бытовые отходы)	Rus tili orqali o‘zlashgan so‘z birikmasi bo‘lib, “QMCh (qattiq maishiy chiqindilar) maydoni” ma’nosini bildiradi.	QMCh maydoni (Qattiq maishiy chiqindilar)	“ Poligon TBO ” atamasi sohaning rasmiy ish yuritishida qo‘llanmoqda. Ushbu atama qonunchilik hujjatlarida mavjud emas. QMCh (qattiq maishiy chiqindilar) maydoni qisqartma so‘zi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi. Qonunchilik hujjatlarida “ <i>qattiq maishiy chiqindi poligonlari</i> ”, “ <i>qattiq maishiy chiqindilarni joylashtirish maydoni – poligoni</i> ”, “ <i>qattiq va maishiy chiqindilarni qabul qilish poligoni</i> ” kabi turlicha ishlatib kelinmoqda.
28.	Пробел	Rus tili orqali o‘zlashgan so‘z bo‘lib,	Bo‘shliq	“ Probel ” atamasi tegishli sohalar, ish

		“oq bo’shliq”, “oq oraliq” ma’nosini bildiradi.		yuritishda, jonli muloqotda, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo’llanmoqda. Qonunchilik hujjatlarida “<i>bo’sh joy (probel)</i>”, “<i>probel</i>”, “<i>elementlar o’rtasida probel</i>” kabi turlicha ishlatib kelinmoqda. “Bo’shliq” atamasi o’zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to’g’ri qo’llanishini ta’minlaydi.
29.	Раковина	Rus tili orqali o’zlashgan so’z bo’lib, “qobiq”, “qalqon” ma’nosini bildiradi.	Chanoq	“Rakovina” atamasi qurilish sohalari, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo’llanmoqda. “Chanoq” atamasi o’zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to’g’ri qo’llanishini ta’minlaydi.
30.	Распродажа	Rus tili orqali o’zlashgan so’z bo’lib, “arzon sotib tugatish” ma’nosini bildiradi.	Arzonsotuv	“Rasprodaja” atamasi turli sohalar, jonli muloqotda, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda qo’llanmoqda. Ushbu so’z qonunchilik hujjatlarida mavjud emas. “Arzonsotuv” atama sifatida o’zbek tilida yangi yasilib, muqobillik asosida tushunchani ifodalay oladi.
31.	Рубильник	Rus tili orqali o’zlashgan so’z bo’lib, “uzish”, “kesish”, “ajratish” ma’nosini bildiradi.	Uzgich	“Rubilnik” atamasi tegishli sohalar, ish yuritishda, jonli muloqotda, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo’llanmoqda.

				Qonunchilik hujjatlarida “<i>elektr ajratkichlar (Rubilnik)</i>”, “<i>rubilnik</i>” kabi turlicha ishlatib kelinmoqda. “Uzgich” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlaydi.
32.	СИМПТОМ	Yunoncha “<i>symptoma</i>” so‘zidan olingan bo‘lib, “<i>alomat</i>”, “<i>belgi</i>”, ma’nosini bildirgan.	Belgi, alomat	“Simptom” atamasi tibbiyot va boshqa sohalar, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. “Belgi”, “alomat” atamalari o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlaydi.
33.	СБ (Сушилка барабанная)	Rus tili orqali o‘zlashgan so‘z birikmasi bo‘lib, “<i>barabanli quritkich</i>” ma’nosini bildiradi. Metallurgiya, kimyo sanoatida material va minerallarning namligini yo‘qotish hamda quritishda qo‘llanadi.	BQ (Barabanli quritkich)	BQ (Barabanli quritkich) qisqartma so‘zi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi. Ushbu atama qonunchilik hujjatlarida mavjud emas.
34.	Суфлёр	Fransuz tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “<i>shivirlab aytib turish</i>”, “<i>puflash</i>” ma’nosini bildiradi.	Shivirchi	“Suflyor” atamasi madaniyat sohasida, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda.

				“Shivirchi” atama sifatida o‘zbek tilida yangi yasali, muqobillik asosida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilikda yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta‘minlaydi.
35.	Тренинг	Ingliz tili orqali o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “o‘qitish”, “tarbiyalash” ma‘nosini bildiradi.	Mashg‘ulot	“Trening” atamasi turli sohalarda, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e‘lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. “Mashg‘ulot” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma‘nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta‘minlaydi.
36.	Фитосанитария	Yunoncha “phyton – o‘simlik” hamda lotincha “sanitas – sog‘liq” so‘zlaridan tashkil topgan so‘z bo‘lib, “o‘simliklar himoyasi” ma‘nosini bildiradi.	Fitohimoya	“Fitosanitariya” atamasi sanitariya sohasida, rasmiy ish yuritishda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e‘lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. “Fitohimoya” atama sifatida o‘zbek tilida yangi yasali, muqobillik asosida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma‘nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta‘minlaydi.
37.	Фрилансер	Ingliz tili orqali o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “erkin nayzachi”, ma‘nosida qo‘llangan. Ushbu so‘z “yollanma ishchi, odatda, o‘zini o‘zi ish bilan ta‘minlovchi, ish beruvchiga bog‘lanib qolmagan, o‘z	Erkin ishchi	“Frilanser” atamasi turli sohalarda, rasmiy ish yuritishda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e‘lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. Qonunchilik hujjatlarida <i>“Masofaviy</i>

		xizmatini masofadan taklif etib ishlovchi” ma’nosini bildiradi.		<i>ishlayotgan xodimlar (frilanser)” tarzida ishlatib kelinmoqda.</i> “Erkin ishchi” atamasi o‘zbekcha muqobil sifatida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlaydi.
38.	Эможи	Yapon tili orqali o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “rasm va belgi” ma’nosini bildiradi. Hozirda elektron qisqa xabarlarda harakatlar yoki g‘oyalarni ifodalash uchun ishlatiladigan rasmlar imo-ishoralar jamlanmasi.	Hisbelgi	“Emoji” atamasi turli sohalarda ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda qo‘llanmoqda. “Hisbelgi” atama sifatida o‘zbek tilida yangi yasali, muqobillik asosida tushunchani ifodalay oladi.
39.	Хештег	Ingliz tili orqali o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “panjara belgisi yorlig‘i” ma’nosida qo‘llangan. Hozirda ijtimoiy tarmoqlarda xabarlarni guruhlash uchun ishlatiladigan belgi sifatida qo‘llanmoqda.	Kalitso‘z	“Xeshteg” atamasi AT (Axborot texnologiyalari) va boshqa turli sohalarda, rasmiy ish yuritishda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. Qonunchilik hujjatlarida <i>“xeshteg”</i> , <i>“heshteg”</i> tarzida turlicha ishlatib kelinmoqda. “Kalitso‘z” atama sifatida o‘zbek tilida yangi yasali, muqobillik asosida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlaydi.
40.	Шпалер	Italyan va nemis tillari orqali o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “tayanch	Tokustun	“Shpaler” atamasi bog‘dorchilik, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda, rasmiy ish

		(ustun)”, “yelka”, “daraxtlar qatori” ma’nolarini bildiradi. Tokzorlarda uzum ko‘chatlarini ko‘tarish uchun o‘rnatiladigan, belgilangan uzunlikka ega bo‘lgan temir beton, temir va boshqa mahsulotlardan (yog‘och va boshqa sinuvchan ustunlardan tashqari) tayyorlangan ustun ma’nosida qo‘llanmoqda (Tor doirada qo‘llaniladigan devorga osiladigan bezakli gilam ma’nosiga aloqasi yo‘q).		yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. Qonunchilik hujjatlarida “<i>uzum ko‘chatini shpalerga o‘tkazish</i>”, “<i>tokzorlarda uzum ko‘chatlarini shpalerga ko‘tarish</i>”, “<i>shpaler usuli</i>” tarzida qo‘llash tajribasi bor. “Tokustun” atama sifatida o‘zbek tilida yangi yasali, muqobillik asosida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlaydi.
41.	Хостел	Ingliz tili orqali o‘zlashgan so‘z bo‘lib, “umumiy yashash uyi”, “boshpana”, “yotoqxona” ma’nosini bildiradi.	Qo‘noquy	“Xostel” atamasi turizm va boshqa sohalarda, rasmiy ish yuritishda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e’lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo‘llanmoqda. “Qo‘noquy” atama sifatida o‘zbek tilida yangi yasali, muqobillik asosida tushunchani ifodalay oladi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlaydi.